

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
13	60721300	Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (xom ashyo va jarayon turlari bo'yicha)	+		Muxandis-mexanik- texnolog

Yo'nalish tavsifi

Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, u o'z ichiga paxtani dastlabki ishlashdagi mavjud texnologiyalar va uskunalar, ularni loyihalash, sozlash, boshqarish, ekspluatasiya qilish, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalar majmuasini qamrab oladi.

Qayd etilgan kasbiy faoliyat sohasining paxtani qabul qilish, g'aramlash va saqlash, quritish tozalash, tola ajratish va tola tozalash, chigitni linterlash, tola va momiqni toylash, tolali chiqindilarni qayta ishlash, urug'lik chigit tayyorlash va yordamchi sex ob'ektlarida paxtani dastlabki ishlash texnologiyasini va tarkibini tanlash, ishlatish, nazorat qilish rostlash va boshqalar, texnologik uskunalarni texnik iqtisodiy va konstruktiv tahlil qilish, joriy va kapital ta'mirlash, paxta va uning mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va nazorat etish, joriy ta'mirlash, paxta mahsulotlarini saqlash, yordamchi uskuna va jihozlarni unumli ishlatish, usta, texnolog, ishlab chiqarish mexanigi, nazorat boshlig'i, muhandis bo'lib ishlashi, ishlab chiqarishga ta'lluqli tajriba sinovlarini o'tkazishi mumkin.